
Munosiblar taqdirlandi

O'z bilim va iste'dodini Vatanimiz va xalqimizga munosib farzand bo'lishdek olijanob maqsadlarga sarflashga chog'lanib turgan sizdek tirishqoq va intiluvchan farzandlarimiz - bizning ishonchimiz va tayanchimiz, Yangi O'zbekistonning oltin fondi, bebaho xazinasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz maktablarini bitiruvchi o'g'il-qizlariga yo'llagan tabrigidan

Farg'ona shahar 2-ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan maktabida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, viloyat hokimining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi Sohibjamol Tongotarova, viloyat malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti rektori Feruza Sohibova, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi Farg'ona viloyati hududiy vakilligi rahbari Aziza Rahmatova, shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri Gulxumor Xalilovalar ishtirok etdilar.

2021-2022 o'quv yilida maktabni tamomlayotgan 162 nafar 11-sinf bitiruvchilarining 60 nafarlari 5,5-8 ballik IELTS xalqaro sertifikatiga ega bo'lgan bo'lsa, 12 bitiruvchi muddatidan avval oliy o'quv yurtlarining talabalariga aylandilar.

Tadbir davomida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan ilm-fan, sport sohasida yutuqlarga erishgan o'quvchi va o'qituvchilarga faxriy yorliq hamda kitoblar jamlanmasi sovg'a qilindi.

Shuningdek, Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi Farg'ona viloyati hududiy vakilligi rahbari Aziza Rahmatova tomonidan maktab direktori Nigora Axmedova va IELTS sertifikatini olgan o'quvchilar taqdirlandilar.

2022-05-25 18:31:56